



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI
VAZIRLIGI

FARG'ONA VILOYATI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI BOSH BOSHQARMASI

FARG'ONA TUMANI QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGI BO'LIMI

150402. Farg'ona tumani Vodil shaharchasi Marg'ilon ko'chasi 2-uy Telefon 73 352-16-63

2026 yil "06" 06 № 26

Farg'ona tuman

Farg'ona tuman hokimiligiga

MA'LUMOT

Farg'ona tuman qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi ushbu orqali sizga shuni yozib ma'lum qiladiki, EFFECT.UZ internet nashrining Telegram mesendjeridagi rasmiy kanali orqali, "Inson hayoti har qanday iqtisodiy manfaatdan ustun. Attraksion xavfsizligi ta'minlanganmi" nomli maqolada yoritilgan mavzuga asosan qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi tomonidan o'rganish otkazildi.

O'rganish jarayonida maqolada yoritilgan atraksion (karusel) tumanning Satkak mahalla fuqarolar yig'ini Satkak ko'chasida fuqaro Yusrunov Umidjon Shukurjon o'g'li tomonidan o'ziga tegishli bo'lgan noturar yer maydonida amaldagi shaxarsozlik norm ava qoidalariga zid ravishda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qurilish sohasiga oid yagona ma'muriy qurilish reglamentlarini tasdiqlash to'g'risidagi 2022-yil 20-apreldagi 200-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablariga muvofiq tegishli xujjatlar rasmiylashtirilmagan o'zboshimchalik bilan beton poydevorlar qurilib metal konstruksiyadan iborat atraksion (karusel) o'rnatib olinganligi aniqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Davlat arxitektura nazoratini amalga oshirishning yangi mexanizmini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2025-yil 28-martdagi 192-sonli qarori bilan tasdiqlangan nizom talablariga muvofiq, fuqaro Yusrunov Umidjon Shukurjon o'g'liga nisbatan O'zbekiston Respublikasining MJTK sining 99-moddasi 8-bandiga asosan ma'muriy chora ko'rish uchun O'zbekiston Respublikasi qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi Davlat arxitektura departamentiga tegishli xujjatlar ko'ndirilganligini ma'lum qilamiz.

Farg'ona tumani qurilish va uy-joy
Kommunal xo'jaligi bo'limi boshlig'i :

Tayyorladi: A.Yusupov

O.Mahmudov